

2020-yilning yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Surxondaryo viloyatida jami **1193,1** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sinh sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **87,9** % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 212,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 17,8 % hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 138,9 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,0 % yoki 704,6 mlrd. so‘m to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 75,3 % ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 23,2 % yoki 276,3 mlrd. so‘m to‘g‘ri keldi hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi - **212,2 mlrd. so‘m**

o‘sinh sur‘ati - **138,9 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi - **704,6 mlrd. so‘m**


o‘sinh sur‘ati - **75,3 %**

Norasmiy sektor

hajmi - **276,3 mlrd. so‘m**

o‘sinh sur‘ati - **102,8 %**

Yanvar-aprel oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami



qurilish ishlari hajmida 67,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 5,7 % punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 27,2 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,6 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,3 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi.



**Yanvar-aprel oylarida qurilish
ishlarining faoliyat turlari bo'yicha
tarkibi**



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Jami qurilish ishlari hajmidan binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari ulushi 67,5 % ni, fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari 27,2 % ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar- aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi.



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,4 % ni tashkil etdi. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 65,2 % (6,9 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 34,4 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 60,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 15,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 39,7 % ni (15,4 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,6 % punktga kamaydi va 20,6 % ni tashkil etdi.

Qolgan 79,4 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,6 % punktga ko'paydi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

	<i>Jami</i>		<i>Shu jumladan:</i>	
			<i>hududiy yirik qurilish tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>oʻsish surʻati, % da</i>	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>oʻsish surʻati, % da</i>
Surxondaryo viloyati	1193,1	87,9	212,2	138,9
Termiz sh.	327,7	88,2	9,3	80,0
tumanlar:				
Oltinsoy	17,0	58,0	-	-
Angor	35,3	67,0	-	-
Bandixon	10,8	78,7	1,4	-
Boysun	64,6	77,7	-	-
Denov	81,7	71,7	3,1	-
Jarqoʻrgʻon	71,4	91,6	2,4	-
Qiziriq	32,3	78,2	2,7	84,8
Qumqoʻrgʻon	39,6	61,5	13,3	51,7
Muzrabot	48,6	83,7	-	-
Sariosiyo	249,8	116,9	160,8	151,4
Termiz	80,1	87,2	0,8	78,8
Uzun	33,5	128,0	10,1	-
Sherobod	76,5	90,4	8,3	165,5
Shoʻrchi	24,2	71,2	-	-

2020-yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 704,6 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 59,0 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,3 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 212,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 17,8 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 138,9 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 23,2 % yoki 276,3 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (% da)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Boysun tumanida qurilish hajmining 71,2 %, Muzrabot tumanida 67,2 %, Termiz tumanida 73,4 % hamda Termiz shahrida 88,7 % ni tashkil qildi.

Yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)




- Davlat mulki
- Nodavlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 18,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,5 % ni tashkil qildi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 1174,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 98,5 % ni tashkil qildi.




**Hududlarda qurilish ishlarining o'lish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'lish sur'ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'lish sur'ati 116,9 % ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 64,4 % ni tashkil qiladi.



2020-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 27,5 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyo tumaniga 20,9 %, Denov tumaniga 6,9 % va Termiz tumaniga 6,7 % ga to'g'ri keldi.



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni:

76 223-07-15

76 225-65-59